

SUN'IY INTELLEKT ASARLARI UCHUN HUQUQIY HIMOYA INNOVATSIYALARI VA NORMATIV-HUQUQIY BAZANI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI

Shomurodov Sanjar Ilhomovich

Toshkent davlat yuridik universiteti magistranti
greatsanjar@gmail.com

Annotatsiya: Sun'iy intellekt (SI) tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar hajmi va murakkabligi ortib borayotgani an'anaviy mualliflik huquqi modelining yetishmovchiligini yuzaga chiqarmoqda. Mazkur maqola SI mahsulotlari uchun innovatsion huquqiy himoya yondashuvlarini tahlil qiladi hamda Integratsiyalashgan shartli huquqiy himoya (IShHH) modelini taklif etadi. Yangi model inson ijodi va SI mahsulotlari o'rtasida muvozanatni ta'minlash, O'zbekiston va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Sun'iy intellekt, mualliflik huquqi, SI mahsulotlari, huquqiy himoya, vakil-inson modeli, "datasets", yaratuvchilik boshqaruvi, IShHH modeli, shartli huquqiy maqom, O'zbekiston qonunchiligi, xalqaro standartlar, intellektual mulk huquqi.

Kirish. So'nggi yillarda sun'iy intellekt (SI) texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida inson ishtirokisiz yoki minimal inson aralashuvida yaratilayotgan mahsulotlar va asarlar hajmi misli ko'rilmagan darajada ortib bormoqda. San'at, adabiyot, dizayn va boshqa kreativ sohalarda SI tizimlari tomonidan yaratilgan kontentlarning xilma-xilligi hamda texnik murakkabligi ko'plab yangi huquqiy savollarni yuzaga chiqaryapti. J.C. Ginsburg "Bu holat mavjud mualliflik huquqi tizimining imkoniyatlarini sinovdan o'tkazmoqda, chunki an'anaviy yondashuvlarda asosan insonning ongli ijodiy ishtiroki asosiy mezon sifatida ko'riladi", deydi [1; B. 8]. Bugungi huquqiy tizimlar inson yaratuvchiligiga tayanadi va inson ijodi natijasida vujudga kelgan mahsulotlarga mualliflik huquqi doirasida huquqiy himoya ostiga olinadi. Biroq SI tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar — rasm, matn, musiqiy asarlar, grafikalar va boshqa kontentlar — inson aralashuvi minimal yoki umuman bo'lmagan holatlarda ham yaratilyapti. Natijada, bu mahsulotlarning huquqiy maqomi, mualliflik huquqi doirasidagi himoyasi va undan kelib chiqadigan mulkiy hamda nomulkiy huquqlarning taqsimlanishi murakkab muammoga aylangan [3; B. 511].

Xalqaro va milliy darajada SI mahsulotlarining huquqiy maqomini belgilash va ularni tartibga solishga oid muammolar tobora dolzarb tus olgan. Ayrim mamlakatlarda, masalan AQShda, SI mahsulotlariga nisbatan faqat inson tomonidan qo'shilgan ijodiy hissa himoya qilinishi belgilangan bo'lsa, boshqa yurisdiksiyalarda

bu masala hali to'liq yechimini topmagan [4; B. 5]. Yevropa Ittifoqining amaldagi normativ-huquqiy bazasi, xususan "Database Directive" kabi hujjatlar zamonaviy SI mahsulotlarining o'ziga xos xususiyatlarini to'liq qamrab olmaydi [6; B. 4].

Mazkur maqolaning asosiy maqsadi — SI mahsulotlari uchun samarali va adolatli huquqiy himoya mexanizmlarini tahlil qilish hamda innovatsion yechim sifatida Integratsiyalashgan shartli huquqiy himoya (IShHH) modelini ishlab chiqishdan iborat. Taklif etilayotgan model orqali SI mahsulotlari inson aralashuvi darajasiga qarab farqlangan shartli huquqiy maqom ostiga olinishi mumkin.

Uslubiyat. Mazkur tadqiqot zamonaviy huquqiy muammolarni chuqur tahlil qilishga qaratilgan bo'lib, asosan kompleks yondashuv asosida amalga oshirildi. Dastlab, normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilindi. Xususan, AQSh, Yevropa Ittifoqi, Yaponiya va O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi, hamda so'nggi yillarda e'lon qilingan rasmiy tavsiyalar o'rganildi. Jumladan, AQSh Mualliflik huquqi idorasi tomonidan ishlab chiqilgan sun'iy intellekt mahsulotlariga oid rasmiy ko'rsatmalar [4; B. 5], Yaponiyaning 2022-yildagi "Intellectual Property Strategic Program" hujjati [5], shuningdek, O'zbekistonda qabul qilinayotgan yangi qonun loyihalari tahlil qilindi.

Tadqiqotning yana bir muhim metodologik jihati huquqiy-nazariy yondashuv hisoblanadi. Bunda SI mahsulotlarining huquqiy maqomini belgilashga oid uchta asosiy model — "Yordamchi ijodkorlik" (Assisted Creativity), "Avtonom ijodkorlik" (Autonomous Creativity) va "Tartibga solinmagan ijodkorlik" (Unregulated Creativity) konseptlari asosida huquqiy mezonlar va himoya mexanizmlarining samaradorligi tahlil qilindi [1; B. 8; 2; B. 7].

Shuningdek, tadqiqotda SI faoliyatining asosi hisoblangan ma'lumotlar bazalari — "datasets" tushunchasi va ularning huquqiy maqomi alohida o'rganildi. Bu borada Yevropa Ittifoqining "Database Directive" normalari [6; B. 4], shuningdek, T. Skassaning "datasets" ustidan nazorat va boshqaruvni kuchaytirishga doir ilmiy takliflari asos qilib olindi [7; B. 137]. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining 27-1-moddasi va milliy maxfiylik talablariga alohida e'tibor qaratildi.

Amaliy tajriba sifatida esa sun'iy intellekt mahsulotlariga oid global voqealar, milliy qonunchilikdagi tendensiyalar va xalqaro huquqiy hamjamiyatda shakllanayotgan innovatsion yondashuvlar o'rganildi. Jumladan, "Leonardo AI", "DALL-E 3", "Midjourney" kabi ilg'or SI tizimlari asosida yaratilgan asarlarning huquqiy maqomi va ularni tartibga solishga oid xalqaro bahs-munozaralar misol tariqasida tahlil qilindi. Shu orqali tadqiqot an'anaviy yondashuvlarning cheklangan imkoniyatlarini aniqlash hamda yangicha — Integratsiyalashgan shartli huquqiy himoya (IShHH) modelining zaruratini asoslash imkonini berdi.

Natijalar. Olib borilgan tahlillar natijasida amaldagi huquqiy tizimlar sun'iy intellekt (SI) mahsulotlarini to'liq qamrab olmayotgani aniqlandi. An'anaviy mualliflik huquqi modeli insonning shaxsiy ijodiy ishtirokini asosiy shart sifatida belgilaydi [1; B. 8]. Biroq SI tomonidan yaratilayotgan mahsulotlar ko'pincha inson aralashuvining minimal yoki butunlay yo'qligi sharoitida yuzaga kelmoqda, bu esa mavjud huquqiy mexanizmlarning yetarli emasligini ko'rsatmoqda. AQSh va Yevropa Ittifoqidagi amaliyotlar buning yaqqol isbotidir. Jumladan, AQSh Mualliflik huquqi idorasi SI mahsulotlari inson ijodi bilan birgalikda yaratilgan taqdirdagina huquqiy himoya ostiga olinishi mumkinligini belgilagan [4; B. 5]. "Zarya of the Dawn" ishida SI yordamida yaratilgan qismlar huquqiy himoyadan mosuvo qilingan, faqat inson tomonidan qayta ishlangan qismlar muhofaza ostiga olingan [4; B. 5]. E.Rosatining aytganidek, Yevropa Ittifoqida esa "author's own intellectual creation" talabi asosida SI mahsulotlari aksariyat hollarda mualliflik huquqi bilan himoyalalanmaydi [6; B. 4].

Shu sharoitda vakil-inson (agent-muallif) modeli dolzarblik kasb etmoqda. Daria Kim tomonidan ishlab chiqilgan ushbu yondashuv SI mahsulotlarini inson vakili nomidan ro'yxatdan o'tkazish va huquqiy himoya ostiga olish imkonini beradi [3; B. 511]. Bu model SI mahsulotlarining huquqiy maqomini mustahkamlash uchun muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda ham SI sohasidagi huquqiy bo'shliqlarni bartaraf etish yo'lida muhim qadamlar tashlanmoqda. 2024-yil 15-aprel kuni birinchi o'qishda qabul qilingan "Sun'iy intellektni qo'llash orqali yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga solishga doir" qonun loyihasi milliy huquqiy tizimni takomillashtirish yo'lidagi ilk tashabbusdir. Bundan tashqari, "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining 27-1-moddasi "datasets" tarkibidagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish uchun muhim normativ asos yaratmoqda [9].

Shunga qaramay, "datasets"larga oid huquqiy bo'shliqlar mavjudligi saqlanib qolmoqda. Yevropa Ittifoqining "Database Directive" hujjati [6; B. 4] va T. Skassaning "data stewardship" modeli [7; B. 137] bu sohada qisman yechim taklif qilgan bo'lsa-da, ular SI mahsulotlarining zamonaviy xususiyatlarini to'liq hisobga olmaydi. O'zbekiston qonunchiligida esa "datasets"larning huquqiy maqomi, boshqaruv va egalik masalalari hali ham yetarlicha tartibga solinmagan. Ushbu natijalar SI mahsulotlari va "datasets"lar ustidan zamonaviy, moslashuvchan va differensial yondashuvlarni ishlab chiqish zarurligini ko'rsatmoqda.

Muhokama. Olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatdiki, sun'iy intellekt mahsulotlari uchun mavjud huquqiy yondashuvlar amaliyotda yetarlicha samarali emas. Xususan, an'anaviy mualliflik huquqi modeli insonning shaxsiy ijodiy ishtirokini asosiy talab sifatida belgilaydi [1; B. 8]. Shunga qaramasdan, SI tomonidan yaratilayotgan ko'plab mahsulotlar inson aralashuvining minimal darajasida yuzaga kelayotgani uchun, ular mualliflik huquqi doirasidan tashqarida qolmoqda. Bu esa,

zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida mavjud huquqiy mexanizmlarning cheklanganligini yaqqol namoyon etadi.

Yuqoridagi kamchiliklarni bartaraf etish uchun innovatsion yondashuvlar zarur. Avvalo, vakil-inson modeli SI mahsulotlari uchun huquqiy himoya ta'minlash borasida muhim konsepsiya hisoblanadi [3; B. 512]. Mazkur model doirasida SI mahsulotlari inson vakili nomidan ro'yxatdan o'tkaziladi va muhofaza qilinadi. Shu bilan birga, "datasets"larga oid boshqaruv va egalik masalalarini hal qilish uchun "data stewardship" modeli taklif etiladi [7; B. 141]. Bu yondashuv ma'lumotlar ustidan maxsus nazoratni kuchaytirish va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish imkonini beradi. Bundan tashqari, SI mahsulotlari uchun shartli huquqiy maqom belgilash SI faoliyatini rag'batlantirgan holda, inson huquqlarini ham ishonchli himoya qilish imkonini yaratadi.

Mazkur maqolada taklif etilayotgan Integratsiyalashgan shartli huquqiy himoya (IShHH) modeli aynan ushbu ehtiyojlardan kelib chiqadi. Ushbu model asosida SI mahsulotlari yordamchi, yarim-avtonom va to'liq avtonom shakllarga ajratiladi. Yordamchi mahsulotlar uchun inson to'liq mualliflik huquqiga ega bo'ladi, chunki bu holatda inson ijodi yetakchi rol o'ynaydi. Yarim-avtonom mahsulotlar uchun esa cheklangan mulkiy huquqlar nazarda tutiladi. To'liq avtonom mahsulotlar maxsus "sun'iy yaratuvchilik huquqi" ostida himoya qilinadi, bunda inson ishtiroki minimal bo'lsa-da, mahsulotning huquqiy maqomi aniqlanadi.

IShHH modelining yana bir muhim elementi — har bir SI mahsuloti uchun ijodiy kurator tayinlanishi hisoblanadi. Kurator SI mahsulotlari ustidan nazoratni amalga oshiradi, ularni ro'yxatdan o'tkazadi, huquqiy muhofaza choralari ko'radi va SI mahsulotidan foydalanish shartnomalarini tuzadi. Bu orqali SI mahsulotlari ustidan inson nazorati saqlanadi va huquqiy, iqtisodiy hamda moliyaviy oqibatlar boshqariladi. Mazkur yondashuv milliy va xalqaro tajribani uyg'unlashtiradi. Xususan, AQSh va Yevropa Ittifoqida ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar, vakil-inson modeli hamda "datasets"ga oid boshqaruv mexanizmlari ISHhH modeli bilan mushtaraklik kasb etadi [4; B. 5; 6; B. 4; 7; B. 137]. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonunining 27-1-moddasi esa "datasets" tarkibidagi shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilishda muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Shu bilan birga, SI mahsulotlariga oid huquqiy mexanizmlarni takomillashtirishda muayyan xatarlar ham mavjud. Avvalo, SI mahsulotlari mustaqil ravishda huquqiy himoya ostiga olinishi natijasida intellektual mulk bozorida haddan tashqari ko'payish, huquqiy monopoliyalar kuchayishi va inson ijodining axloqiy qadriyatlari soya ostida qolish ehtimoli mavjud. Bu haqida S.S.Bazarov "Sun'iy intellekt sohasidagi mahsulotlar va ularga bog'liq zamonaviy texnologiyalar (aqlli shahar, smart-kontrakt, raqamli iqtisod, blokcheyn va h.k.) ishlab chiqarilishi barobarida yuzaga kelayotgan chaqiriqlar, munosabatlar an'anaviy huquq normalari va

institutlarini to'liq qayta ko'rib chiqish zaruratini vujudga keltirmoqda", deb yozadi [2; B. 7]. Bundan tashqari, "datasets" ustidan nazorat yetarlicha kuchli bo'lmaganda, shaxsiy ma'lumotlar va tijorat sirlari tarqalishi mumkin. Shu sababli, ISHHH modelini joriy etishda aniq ehtiyot choralar ko'rish, inson nazoratini kuchaytirish va axloqiy-ijtimoiy muvozanatni saqlash talab etiladi. Umuman olganda, ISHHH modeli sun'iy intellekt faoliyati va inson huquqlari o'rtasida huquqiy muvozanatni ta'minlashga xizmat qilishi mumkin. Bu esa, milliy va xalqaro miqyosda zamonaviy texnologiyalarni huquqiy tartibga solishda dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, an'anaviy huquqiy tizimlar sun'iy intellekt mahsulotlari uchun yetarli huquqiy himoya ta'minlash imkoniyatiga ega emas. Amaldagi mualliflik huquqi modeli insonning shaxsiy ijodiy ishtirokini asosiy shart sifatida talqin qiladi, holbuki, zamonaviy SI mahsulotlari inson aralashuvining minimal yoki butunlay yo'qligi sharoitida ham yaratilmoqda. Bu esa mavjud huquqiy mexanizmlarning yetishmasligini ochiq ko'rsatmoqda. Taklif etilgan Integratsiyalashgan shartli huquqiy himoya (ISHHH) modeli mazkur muammolarni bartaraf etish va zamonaviy texnologik taraqqiyot hamda inson huquqlari o'rtasida huquqiy muvozanatni ta'minlash imkonini beradi. Mazkur model yordamida SI mahsulotlari inson ishtiroki darajasiga qarab farqlanadi va har bir toifa mahsulot uchun mos huquqiy maqom belgilanadi. Shuningdek, vakillik va kuratorlik instituti orqali SI mahsulotlari ustidan inson nazorati va huquqiy javobgarlik mexanizmlari kuchaytiriladi. O'zbekiston uchun ushbu modelni joriy qilish milliy huquqiy bazani takomillashtirish yo'lida muhim qadam bo'lishi mumkin. Xususan, quyidagi normativ-huquqiy takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

- Fuqarolik kodeksiga "Sun'iy intellekt mahsulotlarining shartli huquqiy maqomi" haqidagi yangi modda kiritish;
- Maxsus "Sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan asarlar reyestri"ni tashkil etish;
- SI mahsulotlari uchun vakillik va ijodiy kuratorlik institutini joriy etish;
- "Datasets" tarkibidagi shaxsiy ma'lumotlarni muhofaza qilish mexanizmlarini kuchaytirish.

Bundan tashqari, O'zbekiston xalqaro huquqiy tendensiyalarni inobatga olgan holda, WIPO va Yevropa Ittifoqi tomonidan ishlab chiqilayotgan normativ-huquqiy hujjatlar asosida o'z qonunchiligini moslashtirishi zarur. Ayniqsa, "data stewardship" modeli va vakil-inson instituti orqali huquqiy innovatsiyalarni rag'batlantirish SI mahsulotlari bozorini huquqiy jihatdan barqarorlashtirishga xizmat qiladi. Shunday qilib, ISHHH modeli zamonaviy SI mahsulotlariga huquqiy maqom berish, texnologik taraqqiyot va inson huquqlari o'rtasida muvozanat yaratish, hamda milliy va xalqaro tajribalarni uyg'unlashtirish uchun kompleks yondashuv sifatida tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ginsburg J.C. People Not Machines: Authorship and the Work Made by AI // Columbia Journal of Law & the Arts. – 2023. – Vol. 46. – 8 b.
2. Bozarov S.S. Sun'iy intellekt doirasida huquqiy javobgarlik: yuridik fanlar doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Toshkent, 2023. – 7 b.
3. Kim D. Human Agents and AI-Generated Works: A New Model for Copyright Protection // Journal of Intellectual Property Law and Practice. – 2022. – Vol. 17. – No. 7. – 511 b.
4. U.S. Copyright Office. Registration Guidance for Works Containing AI-Generated Material. – Washington, 2023. – 5 b.
5. Japan Intellectual Property Association. Intellectual Property Strategic Program 2022. – Tokyo: JIPA, 2022.
6. Rosati E. The Database Directive: Past, Present and Future // European Intellectual Property Review. – 2019. – Vol. 41. – No. 1. – 4 b.
7. Scassa T. Data Stewardship: New Roles for Data Governance // International Data Privacy Law. – 2022. – Vol. 12. – No. 2. – 137 b.
8. O'zbekiston Respublikasining "Shaxsga doir ma'lumotlar to'g'risida"gi qonuni. <https://lex.uz/docs/-4396419>
9. 15.04.2025. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi majlisi: <https://t.me/qonunchilikpalatasi/27402>